

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The innovation economy  
UDC

# Tadbirkorlikni rag'batlantirishning mintaqaviy xususiyatlari

Fayziyeva, Shirin Shodmonovna

## Региональные особенности развития предпринимательства

Файзиева, Ширин Шодмоновна

## Regional features of entrepreneurship development

Fayzieva, Shirin Shodmonovna

■ Received: June 8, 2024 ■ Revised: June 11, 2024 ■ Accepted: June 15, 2024 ■ Published Online: July 1, 2024

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada mamlakatimizda tadbirkorlikni rag'batlantirishning mintaqaviy xususiyatlari, ahamiyati va yaratilgan imkoniyatlar tahlil qilingan. Qashqadaryo viloyati va tumanlar kesimida tadbirkorlik faoliyatining o'sish nuqtalari, iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik biznesning ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar taqqoslangan. O'zbekiston tonda ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi aholi farovonligini oshirish, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilayotgan hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlardan kelib chiqqan holda belgilangan vazifalar maqolada aks ettirilgan. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining qabul qilinishining ahamiyati, mamlakatimizdagi qulay ishbilarmonlik muhiti, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar yangi loyihalarni amalga oshirishga xizmat qilayotganligi ko'rsatib berilgan. Bu esa davlatimiz tomonidan olib borilayotgan soha faoliyatini rivojlantirishga doir islohotlar natijasida ularning oldidagi mavjud to'siq va g'ovlarni bartaraf etish hamda korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va yanada rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi. Tadbirkorlikni rag'batlantirishning asosiy yo'nalişlarini aniqlash orqali Qashqadaryo viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasida tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish va imkoniyatlar yaratish masalalarining o'rganilganligi ushbu maqola mavzusining dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni, ya'ni ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilarni qo'llab-quvvatlash, shart-sharoitlar yaratish, yangi texnologiyalar bilan ta'minlanishni kuchaytirish, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish masalalarining kiritilganligi maqolaning ahamiyatini yanada oshiradi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, ishbilarmonlik, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, mahsulotlar hajmini oshirish, eksport, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlantirish, o'sishini rag'batlantirish, moliyaviy hamkorlik, transport-kommunikatsiya tizimi, innovatsion mahsulot yaratish, davlat xaridlari, savdo, raqobat.

Аннотация. В данной научной статье анализируются региональные особенности, значение и создаваемые возможности стимулирования предпринимательства в нашей стране. Сравнивались данные о точках роста предпринимательской активности и доле малого бизнеса в основных отраслях экономики Кашкадарьянской области и районов. Система государственной поддержки бизнеса и предпринимательства в Узбекистане реализуется в целях повышения благосостояния населения, укрепления экономики страны, а также отражены поставленные задачи на основе мер, направленных на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства. Также

была показана важность принятия законодательства о социальном предпринимательстве, благоприятной бизнес-среды в нашей стране, созданных привилегий и возможностей для иностранных инвесторов, которые служат реализации новых проектов. Это играет важную роль в устранении существующих препятствий и подводных камней в результате реформ по развитию отраслевой деятельности, проводимых нашим государством, а также в обеспечении стабильности и дальнейшего развития деятельности предприятий. Определяя основные направления развития предпринимательства, изучение вопросов комплексного развития предпринимательства и создания возможностей в главном управлении экономического развития и сокращения бедности Кашкадарьинской области свидетельствует об актуальности темы данной статьи. Включение вопросов поддержки лиц, занимающихся предпринимательской деятельностью, то есть производителей и поставщиков услуг, создания условий, усиления снабжения новыми технологиями, дальнейшего развития механизмов государственной поддержки экспорта повышает его значимость.

**Ключевые слова:** предпринимательство, малый бизнес, предпринимательство, производство, оказание услуг, увеличение объемов продукции, экспорт, обеспечение занятости, развитие социально-экономических возможностей, стимулирование роста, финансовое сотрудничество, транспортно-коммуникационная система, создание инновационной продукции, государственные закупки, торговля, конкуренция.

Abstract. This scientific article analyzes regional characteristics, significance and created opportunities for stimulating entrepreneurship in our country. Data on points of growth of entrepreneurial activity and the share of small businesses in the main sectors of the economy of the Kashkadarya region and districts were compared. The system of state support for business and entrepreneurship in Uzbekistan is being implemented in order to improve the well-being of the population, strengthen the country's economy, and also reflects the assigned tasks based on measures aimed at developing small businesses and private entrepreneurship. in the article. The importance of adopting legislation on social entrepreneurship, a favorable business environment in our country, created privileges and opportunities for foreign investors that serve the implementation of new projects was also shown. This plays an important role in eliminating existing obstacles and pitfalls as a result of reforms for the development of industry activities carried out by our state, as well as in ensuring stability and further development of enterprises. Determining the main directions for the development of entrepreneurship, the study of issues of integrated development of entrepreneurship and the creation of opportunities in the main department of economic development and poverty reduction of the Kashkadarya region indicates the relevance of the topic of this article. The inclusion of issues of supporting individuals engaged in entrepreneurial activities, that is, manufacturers and service providers, creating conditions, strengthening the supply of new technologies, and further developing mechanisms for state support for exports increases its importance.

**Key words:** entrepreneurship, small business, entrepreneurship, production, provision of services, increasing production volumes, exports, providing employment, developing socio-economic opportunities, stimulating growth, financial cooperation, transport and communication system, creating innovative products, government procurement, trade, competition.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda uzoq tarixga bog'liq tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish jarayonlarida orttirilgan tajribalardan foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga e'tibor qaratishni taqoza etadi.

Globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyatining xavfsizligini ta'minlash uchun eng muhim har bir tadbirkor o'z faoliyatida optimal qarorlar qabul qilishi va bozor konyukturasiga mos holda harakatlarni amalga oshirishidir. Bozor munosabatlari

tizimida tadbirkorlik faoliyatida xavf obyektiv ravishda mavjud bo'lgan haqiqat hisoblanadi. Tadbirkor uchun asosiy xavf-xatarlardan biri foydani maksimallashtirish jarayonida yuzaga keladigan tadbirkor tavakkalchiligi hisoblanadi. O'zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi aholi farovonligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjalaring qabul qilinishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizdag'i qulay ishbilarmonlik muhiti, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar yangi loyihalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa davlatimiz

tomonidan olib borilayotgan soha faoliyatini rivojlantirishga doir islohotlar natijasida ularning oldidagi mavjud to'siq va g'ovlarni bartaraf etish hamda korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va yanada rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi.

## TADQIQOT METODLARI

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari iqtisodiy tahlil, taqqoslash, guruhlash usullari yordamida o'rganish orqali respublikamizda tadbirkorlikni rag'batlantirishning mintaqaviy xususiyatlari aniqlanadi. Ushbu jarayonda erishilgan natijalarni xorij tajribalari bilan taqqoslash, istiqbolda tadbirkorlikni rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yo'llarni tanlashdan iboratdir.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari orqali samaradorligini oshirish yo'llari to'g'risida xorijlik va yevropa iqtisodchi olimlardan K. Makonnell, S. Bryu, A. Marshall, Y. Shumpeter "Основы предпринимательства" [4], J.B. Sey, A. Smit, D. Rikardo, Dj.S. Milyalarning bir qancha asarlarida, V.M. Yakovlevning "Конструктивное предпринимательство" [5], Y.I. Ivanov, F.M. Rusinov, M. Veber, V. Zombart, P. Druker, V. Shepelev, D.V. Busigin, V.D. Kamayev, I.N. Gerchikova, F. Nayt, I.X. Tyunen, R. Kantilyon, K. Bodo, I.X. Tyunen, Naytear, D. Gelbreyt, YE.V. Glushenko, YE.V. Mixaylova, Klas Eklund, A.I. Kapsov, Y.V. Tixonravovlar va boshqa iqtisodchi olimlarning ishlari o'z aksini topgan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning turlari va shakllari bo'yicha ma'lum bir tomonlarini o'rganib, o'zlarining salmoqli hissalarini qoshganlar.

Respublikamizning yetakchi olimlardan S.S.G'ulomovning Tadbirkorlik va kichik biznes, A. Vahobov, A. Abdurakov, X. Abulqosimovning "Xususiy kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishining iqtisodiy muammolari" [6] nomli, H.O. Rahmonovning "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojanishini ekonometrik modellashtirish" [7], Y. Abdullayev, F. Karimovlarning "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari", A.B. Qurbonov, I.E. Tursunovlarning "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish tendensiyalari" [8] nomli asarları va boshqalarning ilmiy faoliyatlarida ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi va rag'batlantirish mexanizmlarining o'ziga hos

jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan. O'zbekistonlik olim S.S.G'ulomovning ta'kidlashicha: "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tamadunining (sivilizatsiya) belgisi hisoblanib, insonlarni u yoki bu moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda amalga oshiradigan hamkorlikdagi harakatini, ya'ni odamlarni yashashi, hayot kechirishining barqaror kafolatini ta'min etishi uchun zarur bo'lgan insoniy munosabatlarni tashkil etishni tavsiflaydi" [9].

Shuningdek, hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikni rag'batlantirish mexanizmlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga imkoniyatlar yaratilmoqda.

## NATIJALAR VA TAHLILLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son farmoniga muvofiq, shuningdek, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish amalga oshirildi.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek: "Biz yangi yilga nom berishda, keng jamoatchilikning fikrlarini o'rgandik. Ana shu takliflardan kelib chiqib, men Yangi - 2022 yilni mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilishni taklif etaman. Inson qadrini ulug'lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rinn tutadi" [3]. Prezidentimiz bundan buyon har bir mahallada samarali ish olib borish faoliyatning bosh mezoniga aylanishini ta'kidladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik - yuridik shaxslar yoxud yakka tartibdagagi tadbirkorlarning muayyan ijtimoiy-ekologik muammolarni hal qilishga yoki ularning oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Ijtimoiy korxona - aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish o'rinnlar bilan ta'minlashni, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarishni va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni yoki boshqa ijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan hamda mazkur Qonunda belgilangan tartibda ijtimoiy korxonalar reyestriga kiritilgan tadbirkorlik subyektidir.

Tadbirkorlikni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash orqali Qashqadaryo viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasida tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish va imkoniyatlar yaratish masalalariga bag'ishlanganligi ushbu monografiya mavzusining dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Asosiy masala sifatida kreditlashga doir vazifalar meyoriy-huquqiy jihatdan kafolatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 maydagi PQ-3694сонли Qurorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, bankning moliya-kredit bozoridagi bosh maqsadi aholi, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at subyektlariga chakana bank xizmatlari ko'rsatish turlarini kengaytirgan holda ularning hajmini oshirish, tomorqa yerlaridan, ayniqsa, qishloq joylarida samarali foydalanishni joriy etishga ko'maklashish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning moliyaviy barqarorligi va jozibadorligini oshirish, bank xizmatlari, ayniqsa, kreditlashning zamonaviy innovatsion turlarini joriy etish vazifalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi "Tadbirkorlik erkinligi kafolatlari to'grisida"gi PQ-328-sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlars hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

2021-yil 05-martdag'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5020-sonli "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi qarorining qabul qilinishi sohani ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga huquqiy poydevor hisoblanadi.

Ushbu qarorda "mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lif va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, joylarda "Ayollar daftari"ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlar va qiziqishlarini tizimli o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida[1], shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'jallangan taraqqiyot strategiyasi to'grisida"gi PF-60-sonli Farmonida "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq bajarilishi ko'zda tutiladi"[2].

Tadbirkorlik, ishbilarmonlik xalqimiz hayotida azaldan muhim o'rinn tutib, uning o'ziga xos an'analarini asrab-avaylangan, bunday fazilatga ega kishilar qadrlangan.

Buni buyuk Amir Temurning "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir"[10] degan fikri ham tasdiqlaydi. Chunki, o'sha davrda ham tadbirkor va ishbilarmon odam hammadan

ma'lum darajada ustunligi bilan ajralib turganligini ko'ramiz. 2019-2021 yillarda Qashqadaryo viloyatida tabiiy monopoliya subyektlari o'z mavqeini suiiste'mol qilgan holda, 669 ta tadbirkorning 90,2 mlrd so'mlik manfaatlarini cheklashga yo'l qo'yan. 2021 yil 16 sentabr kuni Oliy Majlis Senati Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasida o'tkazilgan majlisda monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisining Qashqadaryo viloyatida raqobat muhiti va tadbirkorlikni rivojlantirishning mavjud zahiralari hamda iste'molchilar uchun tanlov imkoniyatlarini oshirish dasturining ishlab chiqilishi bo'yicha olib borilgan o'rganish natijalariga ko'ra viloyatda 2021 yilning 1 yanvar holatiga tadbirkorlik subyektlari soni 54,8 mingtani tashkil etib, ularning soni yil davomida 17 foizga o'sgan.

Tadbirkorlik rivoji uchun qurilish materiallari, turizm, qishloq xo'jaligi, mahalliy sanoat kabi sohalarda zahiralar bor. Jumladan, sanoatni rivojlantirishning paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotlarni yetishtirish va qayta ishslash, qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'nalişlarida katta imkoniyatlar mavjud. Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra viloyatda amalga oshirilgan ishlar qatorida muammo va kamchiliklar mavjudligi ta'kidlandi. Xususan: yirik sanoat salohiyatiga ega viloyatda import tovarlarining ulushi yuqori darajada saqlanib qolganligi;

ichki bozorning mahalliy mahsulotlarga ehtiyoji o'rganilmaganligi;

tayyor kiyim-kechak, charm ishlab chiqaruvchi korxonalar imkoniyatlaridan samarli foydalanish yo'lga qo'yilmaganligi. Bugungi kunda talab yuqori bo'lgan mahalliy mahsulotlar bilan viloyat ichki bozori past darajada ta'minlangan. Gipsokarton, turli xil gofrokarton, bir martalik idishlar, qog'oz paketlar, qurilish va qishloq xo'jaligi texnikalari butlovchi qismi, tish yuvish pastasi va shampun, mix mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari mavjud emas.

Qoramolchilikni rivojlantirish bo'yicha yirik salohiyat mavjud bo'lsa-da, sut va sut mahsulotlarining asosiy qismi boshqa viloyatlardan keltiriladi. Viloyatning 11 ta kichik sanoat zonasida yetarli infratuzilma tashkil etilmaganligi, Qamashi, Mirishkor, Yakkabog' va Kitob tumanlari hamda Shahrisabz shahrida gaz ta'minoti rejalashtirilmaganligi, elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar tufayli tadbirkorlik subyektlari ishini tashkil qilishda qiyinchiliklar kuzatilmoqda.

Xizmatlar sohasida 758 ta ta'mirlash, 1 078 ta veterinariya xizmati va go'sht do'konlari, 1 214 ta hammom va poyabzal tikish (ta'mirlash) xizmati, 1 319 ta kimyoviy tozalash (ximchistka) va maishiy jihozlarni ta'mirlash, 938 ta sartaroshxona va go'zallik salonlari xizmatlariga aholi o'rtaida ehtiyoj bo'lishiga qaramasdan sohalarga tadbirkorlik subyektlari jalb qilinmaganligi ham viloyatda ijtimoiy sohada tadbirkorlikni rivojlantirish va rag'batlantirishga ehtiyoj sezilayotganligidan dalolat beradi..

1-jadval

Qashqadaryo viloyati tuman va shaharlarining o'sish nuqtalari ("drayver" sohalari)[12]

T/R	TUMAN VA SHAHAR NOMI	O'SISH NUQTALARI
1.	G'uzor tumani	Neft-gaz va kimyo sanoati, soya yetishtirish, oziq-ovqat sanoati
2.	Dehqonobod tumani	Qurilish materiallari sanoati, chovachilik, bog'dorchilik (tog' oldi hududlarda)
3.	Kasbi tumani	Chovachilik, to'qimachilik
4.	Kitob tumani	Baliqchilik (forel), bog'dorchilik, uzumchilik, turizm, qurilish materiallari sanoati
5.	Koson tumani	Chovachilik, oziq-ovqat sanoati, tibbiy-sog'lomlashtirish xizmatlari
6.	Qamashi tumani	Bog'dorchilik, uzumchilik, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat sanoati, issiqxona xo'jaligi
7.	Qarshi tumani	Issiqxona xo'jaligi, sabzavotchilik, to'qimachilik
8.	Mirishkor tumani	Chovachilik, paxta-g'allachilik, baliqchilik, to'qimachilik
9.	Muborak tumani	Kimyo sanoati, issiqxona xo'jaligi, tibbiy turizm, chovachilik
10.	Nishon tumani	Chovachilik, to'qimachilik, baliqchilik
11.	Chiroqchi tumani	Bog'dorchilik, uzumchilik, qurilish materiallari sanoati
12.	Shahrisabz tumani	Bog'dorchilik, uzumchilik, turizm, to'qimachilik, asalarichilik, baliqchilik (forel)
13.	Yakkabog' tumani	Bog'dorchilik, uzumchilik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati
14.	Shahrisabz shahri	Turizm, hunarmandchilik, to'qimachilik
15.	Qarshi shahri	Charm-poyabzal, xizmat ko'rsatish, turizm

Davlat xaridlari doirasidagi savdolarda raqobatni cheklovchi omillar saqlanib qolmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida tanlov (tender) savdolarida 486 ta holatda "Raqobat to'g'risida"gi va "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlar talablari buzilgan. 2019-2021 yillarda tabiiy monopoliya subyektlari o'z mavqeini suiiste'mol qilgan holda 669 ta tadbirkorning 90,2 mlrd so'mlik manfaatlarini cheklashga yo'l qo'ygan. Bundan tashqari, oxirgi ikki yilda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan 164 ta raqobatga zid huquqiy hujjatlar qabul qilingan va harakatlar amalga oshirilgan. Qolaversa, bank tariflarning nomutanosib belgilanganligi holatlari iste'molchilar manfaatlari cheklanishiga olib kelmoqda. Tadbirkorlik uchun ajratilgan bank kreditlaridan ishlab chiqarishga yo'naltirilgan qismi ham kam miqdorni tashkil qiladi.

Qashqadaryo vohasi – mamlakatimizda o'zining shonli tarixi, tengi yo'q osori atiqalari va madaniy meros obyektlari bilan o'z orrniga ega. Shu bilan birgalikda jonajon yurtimizning

go'zal va betakror tabiat, qulay iqlimi, sarxil mevalari, boy tabiiy resurslari, unumdar yerlari tadbirkorlikning barcha yo'nalishlarida keng va samarali faoliyat olib borish imkonini beradi. Bugungi kunda viloyatimizda 58300 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritadi. Ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi keyingi 3 yilda 51,1 foizdan 61,4 foizga ko'tarildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning sa'yи harakatlari va shaxsiy tashabbuslari bilan mamlakatimizda tadbirkorlikning qonuniy asoslari mustahkamlandi. Xitoy, Germaniya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, halqaro darajadagi konsultantlar va ekspertlarni jalb qilish orqali soha rivoji uchun qulay muhit shakllandi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat berish va ularni ro'yxatga olishda qog'ozbozlik va byurokratik jarayonlar sezilarli darajada qisqardi.

Tadbirkorlik subyektlarini tekshirmsaslik bo'yicha 2 yillik moratoriyl e'lon qilinib, barcha darajadagi davlat boshqaruvi

2-jadval

Qarshi tuman iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik biznesning ulushi, (foizda)[13]

IQTISODIYOT TARMOQLARI	2019 YIL	2020 YIL	2021 YIL	2022 YIL	2022 YILDA 2019 YILGA NISBATAN O'ZGARISHI, (+,-)
Iqtisodiyotda kichik biznesning sohalar bo'yicha ulushi					
Sanoat	24,6	28,8	48,7	23,8	-0,8
Qishloq xo'jaligi	99,8	99,8	98,6	99	-0,8
Investitsiya	39,6	28,2	43,2	34,8	-4,8
Qurilish	98,1	99,8	100	77,8	-20,3
Savdo	93,2	99,6	96	96,6	3,4
Tashilgan yuk	98,3	84,1	99,7	86,4	-11,9
Tashilgan yuk yylanmasi	71,3	72	99,6	86	14,7
Yo'lovchi tashish	96,3	95,9	98,2	98,1	1,8
Yo'lovchi aylanmasi	99	98,6	99,4	99,2	0,2
Tashqi savdo aylanmasi	15,7	24,4	18,6	42,1	26,4
Eksport	0,6	16,7	13,1	16,9	16,3
Import	80	29,8	25	73,5	-6,5
Ro'yxatga olingan kichik biznes korxonalari (birlik)	1333	1699	2001	2387	1054
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalari (birlik)*	1324	1668	1935	2262	938
Yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari (birlik)*	182	421	353	615	433
Tugatilgan kichik biznes korxonalari (birlik)*	15	58	31	236	221
*dehqon va fermer xo'jaliklarisiz					

idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan tekshirishlarga qat'iy barham berildi.

Tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi prinsipi joriy etilib, kreditlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar bir munga soddalashdi.

Mamlakatimizda keyingi uch yilda qabul qilingan 50 dan ortiq farmon va qarorlar asosida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga

ko'tarildi. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan "Biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz" - degan hayotbaxsh g'oya ijro organlari rahbarlari ongiga singdirib kelinmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rag'batlantirish va imtiyozlar berishda huquqiy jihatdan ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 martdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari

doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida"gi PQ-5041-son qarori talablari doirasida "Har bir oila- tadbirkor" dasturi uchun tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga - 50 million AQSH dollari ekvivalenti; issiqlik ta'minoti tizimini, ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tarmoqlarini yaxshilash, avtomobil yo'llarini qurish-ta'mirlash ishlari hamda Toshkent viloyatining tuman(shahar) obodonlashtirish boshqarmalari moddiy-teknika bazasini mustahkamlashga- 50 million AQSH dollari ekvivalenti.

Bunda:

issiqlik ta'minoti tizimini tiklash va rivojlantirishga - 19 million AQSH dollari ekvivalenti;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tarmoqlarini yaxshilashga- 17 million AQSH dollari ekvivalenti;

avtomobil yo'llarini qurish-ta'mirlash ishlariga - 10 million AQSH dollari ekvivalenti miqdorida ajratilishi belgilangan.

"Har bir oila - tadbirkor" dasturi uchun ajratiladigan mablag'lar vakolatli tijorat banklariga qaytarish sharti asosida 7 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr bilan teng ulushlarda Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz past stavkada ajratiladi"[11].

Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashda bojxona sohasida bir qator imtiyozlar va qulayliklar yaratilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha sohalar kesimida mavjud bojxona imtiyozlarga to'xtalib o'tsak, tadbirkorlik subyektlariga 2020 yilda jami 36,8 trln so'm miqdorda, 2021 yilning 7 oyi davomida 15,7 trln so'm miqdorida bojxona to'lovlaridan imtiyozlar taqdim etilgan.

Yuqoridagi 2- jadval ma'lumotlariga Qarshi tuman iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik biznesning ulushi to'grisidagi ma'lumotlar keltirilgan. Kichik biznesning sohalar bo'yicha taxlil qilinganda 2022 yilda eng katta ko'rsatkich qurilish sohasiga to'g'ri keladi va 2019 yilga nisbatan 20,3 foizga kamayganligini ko'rhamiz.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston va Xitoy ishbilarmonlari o'rtasidagi ma'lumotlar berib borilmoqda. O'zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash va samaradorligini oshirishda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining viloyatlardagi hududiy boshqarmasi, ayniqsa, Namangan viloyati tomonidan kichik biznes, xususan, sanoat ishlab chiqarishida Xitoyda ishlab chiqarilayotgan asbob-uskunalar, zamonaviy mini-teknologiyalar, yuqori quvvatli ishlab chiqarish liniyalari tobora keng o'rin egallamoqda. Ularni viloyatdagi tadbirkorlik subyektlariga jalb etish, shartnomalar tuzish va texnologiyalarni keltirishga ko'maklashishda bunday tadbirlar samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning mamlakat iqtisodiyotida va tadbirkorlikni rivojlantirishda obektiv zaruriyat shundaki, bu bizning kundalik turmush tarzimiz bilan chambarchas bog'liq.

Ijtimoiy tadbirkorlik - bu yuridik shaxslar yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlarning muayyan ijtimoiy-ekologik muammolarni hal qilishga yoki ularning oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy sohani rivojlantirishga investitsiyalar kiritish, milliy bozorni yangi ijtimoiy xizmatlar va tovarlar bilan to'ldirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratiladi.

Tadbirkorlik va ijtimoiy tadbirkorlik bilan bog'liq munosabatlar bir qator xorijiy davlatlarda, jumladan, Koreya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Xitoy kabi davlatlar qonunchiligidagi tartibga solinganligini e'tirof etdilar. Janubiy Koreya davlatida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash natijasida o'n minglab kishilarning bandligi ta'minlangan.

Tadbirkorlik uchun foydali asoslar yaratish siyosatchilardan ijtimoiy tadbirkorlik va uning hissasi haqida tizimli tasavvurga ega bo'lishni, shuningdek, "tadbirkorlik" va "ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchalarini bir-biridan farqlay ola biliishi talab qiladi. Ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy tartibga solinishi, ijtimoiy korxonalarga beriladigan imtiyoz va preferensiyalar quyidagi asoslarga ko'ra jamiyatga, undagi kam ta'minlangan qatlamaq yaxshilash imkonini beradi.

Innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari, respublikaning barcha hududlarida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, kreditlarni tezkorlik bilan taqdim qilishning yangi mexanizmlarini faol joriy etish, mijozlar bilan sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yishning zamonaviy yondashuvlarini qo'llashni hisobga olgan holda kredit uchun arizalarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish jarayonining shaffofligini ta'minlash orqali sun'iy to'siqlar yaratish va ortiqcha byurokratiya yuzaga kelishi imkoniyatlarini bartaraf etish bankning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Qashqadaryo vohasi - mamlakatimizda o'zining shonli tarixi, tengi yo'q osori atiqalari va madaniy meros obyektlari bilan o'z o'rniiga ega. Shu bilan birgalikda jonajon yurtimizning go'zal va betakror tabiatni, qulay iqlimi, sarxil mevalari, boy tabiiy resurslari, unumdar yerlari tadbirkorlikning barcha yo'nalishlarida keng va samarali faoliyat olib borish imkonini beradi. Bugungi kunda viloyatimizda 58300 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritadi. Ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi keyingi 3 yilda 51,1 foizdan 61,4 foizga ko'tarildi.

Ijtimoiy tadbirkorlik huquqiy maydonining mavjud emasligi imtiyozlar va preferensiylar berish qoidalari ishlab chiqilmaganligi, binolarni sotib olish va ijara olishda qiyinchiliklar, mahsulotlarni sotish bilan bog'liq muammolar va hokazolar kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Bunday qiyinchiliklar, ayniqsa, ijtimoiy tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratayotgan MDH mamlakatlarida sezilmoqda.

#### **Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details**

1. Fayziyeva, Shirin Shodmonovna - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti- "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi professor vazifasini bajaruvchi, i.f.n. / **Файзиева, Ширин Шодмоновна** - Каршинский инженерно-экономический институт Исполняющий обязанности профессора кафедры «Инновационная экономика», к.э.н. / **Fayzieva, Shirin Shodmonovna** - Karshi Engineering and Economic Institute Acting Professor of the Department of Innovative Economics, Ph.D.
  - fayziyevashirin66@gmail.com
  - <https://orcid.org/0000-0001-5643-9934>

Foydalilanigan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5020-sonli "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2021 yil 05 mart.
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar

[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi" materiallaridan. 2021 yil 31 dekabr

[4]. Й.Шумпетер "Основы предпринимательства". М.: Дело. 2012 2-изд. стр. 25-26

[5]. В.М. Яковлев. Яковлев В.М. Конструктивное предпринимательства. -М.: Алма-Пресс. 1994. с. 19-20

[6]. X.Abulqosimov. Xususiy kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishining iqtisodiy muammolari. Т.: ТДИУ, 1998. - 6-6.

[7]. H.O.Rahmonov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Buxoro viloyati misolida) iqt.f.d. diss. avtoref. -Т.: 2008

[8]. A.B.Qurbanov, I.E.Tursunov. "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish tendensiyalari". T-2016. 25-27 betlar

[9]. S.S.G'ulomov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari". Toshkent-2016

[10]. H.Bobobekov. Amir Temur Qo'rag'on "Temur tuzuklari". Toshkent "Fan va texnologiya" 2014, 196 bet

[11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5041-son qarori. 2021 yil 27 mart

[12]. Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasi ma'lumotlari 2019-2022 yillar